



Ustozlarimiz yuksak mukofotga sazovor bo'ldilar!

Ustozlarimizning xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, mustaqilligimizni mustahkamlash yo'lidagi mehnatlari e'tirof topmoqda. Fidoyi ustozlarimiz Yangi O'zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, yosh avlodni qonunlarga hurmat, Vatanga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash ishlariga qo'shgan munosib hissalari uchun O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 30 yilligi munosabati bilan Prezidentimizning tegishli farmoni va Vazirlar Mahkamasining farmoyishi asosida ta'sis etilgan esdalik nishonlari bilan taqdirlandilar.

Qo'qon shahar hokimligi tomonidan tashkil etilgan anjumanda Qo'qon universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor **G'afurjon Zaxidov** Iqtisodiyot va ta'lim fakulteti dekani (PhD)

Shohruxbek Ro'ziyev va Talabalariga xizmat ko'rsatish departamenti boshlig'i **Jasurbek Turg'unovlarga**

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30 yilligi» esdalik nishoni va guvohnomasi topshirildi.



Davlatimizning yuksak mukofoti muborak bo'lsin, aziz ustozlar!

Tashabbuskor jamoamizga – Tashakkurnoma!

O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev Qo'qon universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor G'afurjon Zaxidovga va u orqali universitet jamoasiga o'z tashakkurini bildirdi.



YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI

Qo'qon universitetining mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar manfaatlarini himoya qilish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash yo'lidagi sa'y-harakatlari o'z



Kokand
University

e'tirofini topmoqda.

Universitetimiz rahbariyati bu boradagi qator ibratli ishlari bois Yoshlar ishlari agentligi direktori tomonidan Tashakkurnoma bilan taqdirlandi!



2022-yilning 29-iyul kuni davlatimiz rahbarining **“Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”** gi qarori qabul qilindi. Unda Qo'qon shahri **“Turkiy dunyoning turizm poytaxti”** maqomini olganligi munosabati bilan hududning madaniy va turizm infratuzilmasini

rivojlantirish, xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun jozibadorligini oshirish maqsadida **“Tabarruk ziyorat”** turizm konsepsiyasi tasdiqlandi.

Qarorda Turizm va madaniy meros vazirligi, Farg'ona viloyati hokimligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Qo'qon universitetini turizm marshrutlariga kiritish taklifi ma'qullangani qayd etilgani

quvonarlidir.

Bu muhim hujjatda Qo'qon universiteti huzurida Turizm fakulteti va Mehmonxona amaliyoti markazi, Akademik xostel, Akademik turizm markazi, Universitet va aholi uchun ochiq kutubxona va nashriyotni tashkil etish hamda uni turizm masalalari bo'yicha zamonaviy o'quv adabiyotlari va kutubxona fondi bilan ta'minlash belgilab qo'yilgan bo'lib, bu borada keng ko'lamli bunyodkorlik va yangilanish ishlari amalga oshirilmoqda.

Prezident qarori - amalda

Qo'qon universiteti - turizm manzillaridan biri

Endilikda turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo va kuzatuvchi davlatlar, shuningdek, turkiy xalqlar diasporalari keng tarqalgan boshqa mamlakatlardan yurtimizga jalb etilgan turistlar, **“Tabarruk ziyorat”** xalqaro mediatori doirasidagi barcha mehmon-sayyohlarning universitetimizga tashriflari yanada ortadi. Ishonamizki, yaqin vaqt ichida ta'lim muassasamiz latif shaharga tashrif buyuruvchi sayyohlarning eng sevimli maskanlaridan biriga aylanadi.

Seminar-trening haftaligi: Akademik Saidahrur G'ulomov universitetimizda

Universitetimizda O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Saidahrur G'ulomov tomonidan o'qituvchilar va talabalar uchun bir hafta davomida seminar-trening o'tkazildi.

Seminar-treningda 2023-yilning «**Insongae'tibor va sifatli ta'lim yili**» deb nomlanishi va Prezidentimizning Oliy Majlis hamda O'zbekiston xalqiga

Murojaatnomasida ilgari surilgan ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqadigan, ayniqsa ta'lim tizimi xodimlari oldida turgan vazifalar keng sharhlandi.

Akademik o'z ma'ruzasida Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilganidek, **ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'li ekanligi**, sohada boshlangan islohotlarni davom ettirish, o'quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish



ta'limga bog'liq bo'lib qolmoqda. Buning uchun o'zimizdagi bir qator kamchiliklarni tuza-tish va muammo-larimizni hal qilish chorasini

bo'yicha oldinda turgan vazifalarni kechiktirmay, og'ishmay bajarish kerak-ligini alohida ta'kidladi.

—Mamlakatimiz kela-jagi, endigi taraqqiyoti bevosita innovatsion omillarga, pirovardida, sifatli

ko'rishimiz, ularni bartaraf etish uchun tegishli "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqib, ularning bajarilishini kechiktirmasligimiz lozim, - dedi akademik Saidahrur G'ulomov.

Talabalarimiz Prezident hamda nomdor davlat stipendiyalari tanlovi g'olibi!

Qo'qon universitetining 3 nafar iqtidorli talabasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga munosib ko'rildi.

Moliya yo'nalishi 4-kurs talabasi **Xurshidbek Tolibjonov** Prezident davlat stipendiyasi tanlovi g'olibi bo'ldi!

U «Kelajak Liderlari» klubining faol a'zosi. Iqtidori va bilimi, yuqori reyting bahosi, ilmiy izlanishlari va universitet akademik hayotida alohida faollik ko'rsatgani bois «Yil a'lochisi» nomini olgan va «Rektor Stipendiyasi» sohibi ham bo'lgan.

Iqtisodiyot yo'nalishi 3-kurs talabasi **Nishonqulov**

Shohruhxon Farxodjon o'g'li Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi tanlovi g'olibi bo'ldi!

U GPA ko'rsatkichi yuqoriligi bois universitet grantiga sazovor bo'lgan. «Virtual Education Sphere» («Virtual ta'lim muhiti») nomli loyiha mualliflaridan biridir.



Bu loyiha respublikamizda eng sara g'oyalardan deb topilgan. Yoshlar ishlari agentligi, IT Park va O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi hamkorligida o'tkazilgan «O'zbekiston uchun 100 g'oya» respublika tanlovida g'olib bo'lgan.

Iqtisodiyot yo'nalishi 3-kurs talabasi **Rajabboyev Botirjon Odil o'g'li** Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi tanlovi g'olibi bo'ldi. Botirjon O'zbekistonning Top 100 yoshlari safidan o'rin egallagan. U «O'zbekiston uchun 100 g'oya» respublika tanlovida talabalar uchun zamonaviy ta'lim veb sayti va mobil ilovasini ishlab chiqishga qaratilgan loyihasi bilan g'olib bo'lgan. Shuningdek, Mirzo Ulug'bek vorislari tanlovining respublika bosqichida g'olib bo'lgan yoshlar safida maqsadli o'quv kurslarida malaka oshirgan. U «**Kelajak Liderlari**» safidan ham o'rin olgan.

Universitetimizda Inkubatsiya va akseleratsiya markazi ochildi

Qo'qon universitetida IT park bilan hamkorlikda Inkubatsiya va akseleratsiya markazi



ochildi. Prezidentimizning yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan Uchinchi muhim tashabbusi va iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chaqiriqlariga javoban universitetda IT laboratoriya faoliyati yo'lga qo'yildi.

Endilikda univer-

sitetda startup ekotizimi izchil rivojlanadi. AKT sohasidagi startup-loyihalarni takomillashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Inkubatsiya va akseleratsiya markazida yoshlarda dasturlashtirish, startup loyihalar ustida jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, mahalliy shart-sharoitlarga mos dasturiy ta'minotlarni

ishlab chiqish, kelajakda mahsulotlar eksportini kengaytirish maqsad qilinmoqda. Talaba-yoshlar tomonidan yaratilgan dasturiy ta'minotlar, axborot tizimlari va AKT sohasidagi ishlanmalar loyihalari taqdimoti o'tkazib boriladi. Markazning IT-park rezidentlari bilan hamkorligini rivojlantirish ham ko'zda tutilyapti.

Ilmiy yutuqlarning salmog'i ortmoqda

Qo'qon universitetida ilmiy rivojlanishdan akademik mukammallik sari izchil sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Professor-

o'qituvchilarimizga o'z salohiyatlarini yuksaltirib borish, malaka va tajribalarini oshirish, ilmiy faoliyat va tadqiqotlarni amalga oshirishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

2022-yilda ustozlarimiz salmoqli ilmiy natijalarga erishdilar. Xususan, Iqtisodiyot va ta'lim fakulteti dekani, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) **Ro'ziyev Shohruxbek Ravshanjon o'g'li** «Xizmat ko'rsatish tarmoqlari» ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvoniga ega bo'ldi. Uning muallifligida Qo'qon universiteti seriyasida chop etilgan «Turizm geografiyasi» o'quv qo'llanmasi va «Tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish: nazariya va amaliyot» monografiyasi talaba-yoshlar hamda soha

mutaxassislari uchun yangi bilim va tajribalar manbai bo'ldi.



Akademik ishlar departamenti boshlig'i **Najmiddinov Muhammadjon G'ayratjon o'g'li** Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi. U «O'zbekcha-inglizcha-ruscha lingvistik atamalarining elektron platformasini yaratishning lingvistik asoslari» mavzusidagi tadqiqot ishini ilmiy kengashda 100 % ovoz bilan yoqlashga muvaffaq bo'ldi.

Yana bir yosh, intiluvchan

ustozimiz, Jahon tillari kafedrası o'qituvchisi **Isakova Zilolaxon Zokirovna** filo-



logiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilishga erishdi. Ushbu ustoz «Ingliz va o'zbek tillarida baho munosabatining ifodalanishi» mavzusidagi tadqiqot ishini 100 % ovoz



bilan yoqlashga muvaffaq bo'ldi.

Qo'qon universiteti huzuridagi 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti (iqtisodiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha **ilmiy kengashda** ikkita himoya ishi yoqlandi. **Ergashov Ilhomjon Ikromovich** va **Nazarov Nazar G'ulom o'g'lining** falsafa doktori (PhD) himoyalari bo'lib o'tdi.



Shuningdek, Qo'qon universitetining tayanch va mustaqil doktorantlari ish rejalarini muvaffaqiyatli ado etmoqdalar. **Nodirjon Rahmonov, Rustam Tohirov, Oybek Ahmadjonov va Shohrux Saidov** Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun malakaviy imtihonlardan o'tdilar va Guvohnomalarga ega bo'ldilar.

Ta'lim sifatini oshirishning eng maqbul yo'llaridan foydalanilmoqda

Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi barcha islohotlar mazmun-mohiyati yurtimizda inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirish, mehnat bozori talablariga javob bera oladigan, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlari uchun zamonaviy bilim hamda ko'nikmalarga ega oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashga qaratilmoqda. Qo'qon universiteti professor-o'qituvchilari ham bitiruvchilarning kasbiy-malaka darajasi xalqaro mehnat bozorida tan olinishini ta'minlash borasida bor ilmiy imkoniyatlarini safarbar etishyapti.

Xususan, universitet olimlari, pedagog-o'qituv-

chilari tomonidan o'quv adabiyotlarining zamonaviy avlodini yaratish, fan dasturlari (sillabuslar) asosida amaliy qo'llanmalarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Nazariy ma'lumotlar amaliy vazifalar bilan uyg'unlashtirilgan holda ishlab chiqilgan 40 dan ziyod nomdagi o'quv adabiyotlari nufuzli nashriyotlarda chop etildi. «Biznes kommunikatsiya», «Sifat menejmenti», «Bolalar san'ati», «Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari», «Turizm geografiyasi», «Ilm-fan va tabiat markazi. Tabiat in'omlari dizayni» va «Matematik ta'lim» kabi qator kitoblar shular jumlasidan.

Qo'qon universitetida ilm-ma'rifatli, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali bitiruvchilarni tayyorlash, darslar mazmun-mohiyatini yanada yuksaltirish ishlariga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu maqsadlarda universitetimiz professor-o'qituvchilarining malakasini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, ustozlarimiz YUNICEF xalqaro treneri, Falsafa fanlari doktori (PhD), interaktiv ta'lim mutaxassisi **Dilafroz Xidoyatov**ning «Samarali interaktiv metodlar» mavzusidagi onlayn seminar-treningida ishtirok etishdi. 10 dan ortiq samarali metodlar orqali talabalarining o'quv-



bilish faolligini oshirish ko'nikmalari va pedagogik mahoratlari yanada oshirildi. Trening orqali interfaol metodlar yordamida ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'llari bo'yicha xalqaro tajribalar o'rganildi va o'quv jarayoniga tatbiq etilmoqda.

Shuningdek, jamoadagi yosh o'qituvchilarning malakasini oshirish maqsadida «Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va kasb malakasi» mavzusida treninglar o'tkazildi. Malakali professor-o'qituvchilar tomonidan ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan mahorat darslari o'tildi.

Xalqaro hamkorlik – ta’lim jarayoniga innovatsion shakl va uslublarni joriy etish omili



Qo‘qon universitetining xalqaro hamkorlik aloqalari ilm-fan – amaliyot va ishlab chiqarish integratsiyasini ta‘minlash, xorijda talabalar amaliyotini tashkil etish, qo‘shma dasturlar asosida professor-o‘qituvchilar va talabalar almashish, istiqbolli start-up loyihalarini tatbiq etishga qaratilmoqda. Shuningdek, respublikamiz ilm-fan rivojini yangi bosqichga ko‘tarishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Qo‘qon universitetida YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi, Turizm Lab NNT, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan hamkorlikdagi loyihaga asosan Indoneziyaning Gunadarma va Indoneziya universitetlari professorlari ishtirokida xalqaro o‘quv seminari o‘tkazildi. Unda Indoneziya va viloyatimizning qator universitetlari mutaxassislari, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar ishtirok etdilar. «O‘zbekistonni sun‘iy idrok davriga tayyorlash» mavzusida o‘tkazilgan o‘quv seminarida Xalqaro hamkorlik bo‘yicha koordinator, Gunadarma universiteti Sun‘iy idrok mukammallik markazi rahbari, professor

Made Wiryanaya mavzu bo‘yicha keng bilim va ko‘nikmalar berdi. Dunyodagi sun‘iy intellekt strategiyasi, SIga oid texnikalar va ulardan foydalanish orqali ta‘limni o‘zgartirish imkoniyati haqida batafsil ma‘lumotlar berdi.

Qo‘qon universiteti rahbariyati va Indoneziyaning Gunadarma hamda Indoneziya universitetlari professorlari o‘rtasida o‘zaro muzokara ham o‘tkazildi. Turizm va mehmonxonani boshqarish yo‘nalishi talabalari uchun Indoneziyaning Bali orolida amaliyot o‘tash, barcha yo‘nalishlar talabalari uchun Yozgi kurs, Robototexnika, Sun‘iy idrok va boshqa kurslarda o‘qish, super kompyuterda malaka oshirishni tashkil etish borasida kelishuvga erishildi.

Qo‘qon universitetining xorijiy yetakchi universitetlar bilan hamkorligi o‘z samarasini bermoqda. Xususan, **Kareliya amaliy**

fanlar universiteti bilan tuzilgan talaba almashinuv dasturi bo‘yicha jami 7 nafar talabamiz Finlyandiya ta‘lim olmoqdalar. 1 nafar talabamiz Janubiy Koreyaning **Joongbu universitetida** bepul ta‘lim olish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Universitet ta‘lim jarayoniga xalqaro tajribali ustozlar jalb etilmoqda.



Xususan, Gretsiyaning **International Hellenic** universiteti Xalqaro turizm kafedrasining professor-o‘qituvchisi, ALFA, LIFE-Environment, ERASMUS, MUNDUS, TEMPUS kabi qator loyihalar koordinatori **Soultana Kapiki** universitetga taklif etilib, talabalarimizga mehmonxonalar va ta‘lim bo‘limlarini barqaror boshqarish, turizm, sog‘liqni saqlash va farovonlikka xizmat qiluvchi tizimlarni sifatli rivojlantirish borasidagi boy tajribalarini yetkazdi.

Shuningdek, Orhun almashinuv dasturi bo‘yicha xorijiy hamkor universitetlar professor-o‘qituvchilari tashrif buyurib, ta‘lim jarayoniga innovatsion shakl va uslub-

larni joriy etish borasida tajriba almashilmoqda. Xususan, **Qirg‘iz-turk Manas universitetining** Adabiyot fakulteti, G‘arbiy tillar kafedrasida professor-o‘qituvchisi, **Dr. Anarkan Bekturova** universitetimizga tashrif buyurdi. **Qozog‘istonning Atirau universiteti** professor-o‘qituvchilari **Karaz Kaziye**, **Shinar Bisenova** va **Aygul Bakirbekovalar** ikki hafta mobaynida universitetimizdagi ilmiy-amaliy muhit bilan tanishib, professor-o‘qituvchilarimiz bilan o‘zaro tajriba almashdilar.

O‘z navbatida, almashinuv dasturi doirasida ustozlarimiz xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lmoqdalar. Qo‘qon universitetining Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasida mudiri **Boburmirzo Xursanaliyev** va kafedraning tajribali o‘qituvchisi **Abbosxon Yusupovlar** Orhun almashinuv dasturi asosida **Ozərbayjon davlat iqtisodiyot universitetida** magistratura bosqichi talabalariga Marketing fanidan bilim berdilar. Ozarbayjonda bu o‘qituvchilarimiz mahorati e‘tirofga sazovor bo‘ldi.



«O‘qitish mahorati, dars qizg‘in va interaktiv uslubda o‘tilganini yuqori baholayman. 80 daqiqalik dars 3 muhim qismga bo‘linib, aniq misollar va keyslardan foydalanilgan holda o‘tilgani Qo‘qon universiteti o‘qituvchilarining pedagogik tajribalaridan foydalanishga qiziqishimni oshirdi», deya e‘tirof etdi UNEC professor-o‘qituvchisi Galandar Mammadi.



Bosh muharrir
G‘ofurjon Zaxidov

Matn muharriri
Muxtasar Isoqova

Sahifalovchi-dizayner
Asadbek Daverbayev

Fotomuxbir
Usmon Ibragimov

Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri,
Turkiston ko‘chasi, 25 A-uy

(+998) 91 142 83 66

@press_ku